MADANIYATLARARO MULOQOT - DAVRNING DOLZARB VAZIFASI

Ismatova Zumrad O‘lmas qizi, ***Qarshi davlat universiteti talabasi***

Annotatsiya. Mazkur maqolada turli xalqlar, tillar va madaniyatlarning yaqinlashuvi, xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning ortib borayotganligi, shuningdek, boshqa xalqlar va millatlarning ilm-fan sohasida yaratilayotgan yangiliklardan xabardor bo‘lishda madaniyatlararo muloqotning o‘rni qay darajada muhim ekanligi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: globallashuv, standartlashuv, integratsiyalashuv, “communication”, “madaniyatlararo muloqot”, verbal, noverbal.

Turli xalqlar, tillar va madaniyatlar yaqinlashgan bugungi kunda, xorijiy tillarni o‘rganish bilan birga, boshqa madaniyatlarga ham qiziqish ortib bormoqda. Madaniyatlararo, xalqaro muloqot masalalari dunyo xalqlari e’tiborni tortmoqda. Madaniyatlararo muloqot muammolari bilan shug‘ullangan aksariyat xorijlik tadqiqotchilarning ta’kidlashlaricha, chet elliklar bilan muomalada bo‘lganda grammatik, leksik va uslubiy xatolar kechiriladi, chunki bu ulardagi til bilimining yetarli emasligi bilan izohlanadi. Biroq muloqot jarayonida ijtimoiy-madaniy me’yorlarning, odob-axloq qoidalarining buzilishi salbiy qabul qilinadi. Chunki bunday me’yorlarning buzilishi muayyan madaniyat vakilining kamsitilishi yoki haqoratlanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Kommunikativ xatolar madaniy inqiroz holatini yuzaga chiqarib, shaxslararo va millatlararo muloqotning muvaffaqiyatsizlikka uchrashiga, hatto jiddiy to‘qnashuv, geosiyosiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda, globallashuv, standartlashuv, integratsiyalashuv va madaniyatlarning aralashuvi yuz berayotgan bugungi kunda madaniyatlararo muloqot muammolarini o‘rganish, ularni tadqiq etish dolzarb masalalardan biridir. Hozirgi kunda til bilishning o‘zi kommunikatsiya ishtirokchilari bir-birini tushunishlari uchun yetarli bo‘lmaydi. O‘zaro munosabatlarning muvaffaqiyatli va samarali bo‘lishi uchun nutq ishtirok etgan va ishtirok etmagan muloqotning milliy-madaniy xususiyatlari, ijtimoiy-madaniy me’yorlar, odob-axloq qoidalari, kommunikatsiyadagi ustuvor xususiyatlar hamda



xushmuomalalikning milliy tizimi haqida bilimga ega bo‘lish kerak bo‘ladi. Zero, yoshlarimizning Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning ta’kidlaganidek: “mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib dunyo miqiyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi ” o‘ta muhim vazifalardan biridir. Inson – ijtimoiy mohiyatdir. Inson jamiyatda yashaydi va tabiiyki, u mazkur jamiyatning boshqa a’zolari bilan muloqot qilishi lozim bo‘ladi. Kommunikatsiya termini ham “lotincha” “communication”, “communis” - “umumiy” so‘zidan kelib chiqqan. Demak, so‘z insonlarni bir-biri bilan bog‘laydi, ularni muloqot vositasida birlashtiradi. Muloqotsiz jamiyat bo‘lmaydi, jamiyatsiz inson. So‘z tilda mujassamlashib, insonni hayvonot dunyosidan ajratadi. Hech qaysi bir fan, hech qaysi bir ilm so‘zsiz mavjud bo‘lmaydi. Hech bo‘lmaganda, bilim va tajribalarni shakllantirish, ularni qayd qilib kelgusi avlodga qoldirish uchun ham so‘zlar kerak bo‘ladi. Xullas, muloqot insoniyat borligining asosini tashkil qiladi. Madaniyatlararo muloqot bu muloqot masalalarini asosan til va madaniyatga e’tibor bergan holda tahlil qilishdan, farqli madaniyatlar orasidagi kommunikatsiyani osonlashtirish va to‘qnashuvlarni oldini olishdan iborat. Hozirgi kunda turli xalqlar, tillar, madaniyatlar aralashgan bir paytda, boshqa madaniyatlarga qiziqish, ularni hurmat qilish, ularni tushunishga harakat qilish, ularga sabr-toqat bilan yondashishni o‘rganish dolzarb masalalardan biridir. Aynan shu tufayli madaniyatlararo, xalqaro muloqot masalalari umume’tiborni tortdi. Jumladan, mashhur amerikalik siyosatshunos olim Samuel Xantingtonni uchinchi jahon urushi siyosiy yoki iqtisodiy emas, balki madaniyatlar va sivilizatsiyalar urushi bo‘ladi, deb bashorat qilgan edi . Inson boshqa odamlardan ajralgan holda yashay olmaganidek, bironta ham madanyat boshqa xalqlarning madaniy yutuqlaridan himoyalangan holda to‘laqonli mavjud bo‘la olmaydi. Kishilar hayot faoliyati davomida muntazam ravishda o‘z o‘tmishiga yoki boshqa madaniyatlarning tajribasiga murojaat qiladilar. Hozirgi kunda yer kurrasining chekka joylarida qolib ketgan ayrim kichik mahalliy qabilalarni istisno qilganda, dunyodan mutlaqo uzilgan madaniy



hamjamiyatlar mavjud emas. Bugungi kunda har qanday xalq o‘zga madaniyat tajribasini qabul qilishga va o‘z madaniyati mahsulini boshqa xalqlar bilan bo‘lishishga tayyorligi tabiiydir. Boshqa xalqlar madaniyatiga bo‘lgan bunday munosabat “madaniyatlararo muloqot” yoki “madaniyatlarning o‘zaro aloqasi” deb nomlanadi . Madaniyatlarning o‘zaro aloqasi haqida so‘z yuritilganda, yirik guruhlar (madaniyatlar va submadaniyatlar) orasidagi munosabatlar nazarda tutiladi. Zamonaviy rivojlanish sharoitida madaniy aloqalar inson hayotining turli sohalarida – turizm, sport, shaxsiy aloqalar va boshqa sohalarda amalga oshadi. Bundan tashqari, keying yillarda dunyoda yuz bergan ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar xalqlarning katta miqyosdagi migratsiyasiga, ko‘chishiga va ularning aralashuviga olib keldi. Ushbu jarayonlar natijasida aksariyat kishilar ilgari ularni ajratib turgan madaniy to‘siqlarni yengib bormoqda. Ular o‘zga madaniyatlar bilan tanishishga, ular bilan aralashib ketishga majbur bo‘lmoqda. Shuning uchun madaniyatlarning o‘zaro aloqasi alohida kishilar orasidagi munosabatlar orqali amalga oshmoqda. Ma’lumki, madaniyatlararo muloqot “xabar yuboruvchi” va “xabarni qabul qilivchi” turli madaniyatlarga mansub bo‘lganda, shuningdek, kommunikatsiya ishtirokchilari bir-birining madaniy farqlarini tushunib yetganda amalga oshadi. Madaniyatlararo muloqot – muayyan madaniyat va til sohiblarining o‘zga madaniyat va til vakillari bilan verbal (nutqli) va noverbal (nutqsiz) muloqot vositasidagi o‘zaro aloqa jarayonidir. Bunday muloqotning har bir ishtirokchisi o‘zining shaxsiy qoidalari tizimiga ega bo‘ladi. Madaniyatlararo muloqot mohiyatan maxsus vaziyatdagi shaxslararo kommunikatsiya bo‘lib, u bir ishtirokchi boshqa ishtirokchining madaniy farqini sezganda yuzaga chiqadi. Bunday muloqot turli madaniyatlardagi har qanday insonga xos bo‘lgan farqli umidlar va ishonchlar bilan bog‘liq ko‘plab muammolarni keltirib chiqaradi. Madaniyatlararo muloqot madaniyat farqlari ko‘rinib turgan individlar va guruhlar orasidagi o‘zaro munosabat jarayoniga asoslanadi. Ushbu farqlarning qabul qilinishi va ularga munosabat bildirilishi muloqotning ko‘rinishi, shakli va natijasiga ta’sir ko‘rsatadi. Madaniyatlararo muloqot jarayoniga madaniyat farqlari



bilan birga, muloqotchilarning yoshi, jinsi, kasbi, va ijtimoiy kelib chiqishi, shuningdek, uning sabr-bardoshi, ishbilarmonligi va shaxsiy tajribasi ham ta’sir ko‘rsatadi. Demak, madaniyatlararo muloqot turli madaniyat vakillari orasidagi o‘zaro aloqa, muloqotdir. Madaniyatlararo muloqot kommunikativ aktning farqli madaniyatlarga tegishli bo‘lgan ikki ishtirokchisining o‘zaro bir-birini tushunishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. –Toshkent: O‘zbekiston, 2017. –B. 14.
2. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. –М.: Слово, 2000. –С. 8-9
3. Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. - 5th ed. –New York: McGraw-Hill, 2010. –P. 4.

